

## YALLIG'LANISHGA QARSHI TA'SIRGA EGA GRANULA TEXNOLOGIYASI

A.B.Mamadaliyev

M.A. Raximova

Toshkent Farmatsevtika Instituti, Toshkent sh, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: Abdulaziz2002087@gmail.com

tel. +998900455272

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12635700>

**Kirish.** Mahalliy o'simlik xom ashyolari asosida yangi dori shakllarini yaratish hozirgi zamon farmatsiyasining dolzarb vazifasidir. So'nggi vaqtda dunyo farmatsevtik sanoatida suyuq ekstraktlar va ular asosida uzoq saqlanish muddatiga ega, qabul qilishga qulay dori preparatlarini yaratish, zararsiz dori vositalari zaxirasini ko'paytirish imkonini beradi. Jumladan, farmasevtikaning dolzarb masalalaridan biri bo'lmish yallig'lanishga qarshi dori vositalarining yangi foydali jihatlarini hamda ularni olishda zamonaviy va samarali usullarning yaratilish zarurati ham tibbiyot sohasida kun tartibiga kirdi. Dorivor o'simliklar asosidagi granulaning tibbiyot amaliyotida keng qo'llanilishiga ularning quyidagi qator afzallik tomonlari asos bo'ldi: dori shaklining turg'unligi, dori vositalarini qo'llash soni kamaytirilishi, davolash xarajatlarini qisqartirilishi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Farmasevtikaning dolzarb masalalaridan biri bo'lmish yallig'lanishga qarshi dori vositalarining yangi foydali jihatlarini hamda ularni olishda zamonaviy va samarali usullarning yaratilish zarurati ham tibbiyot sohasida kun tartibiga kirdi. Dorivor o'simliklar asosidagi granulaning tibbiyot amaliyotida keng qo'llanilishiga ularning quyidagi qator afzallik tomonlari asos bo'ldi: dori shaklining turg'unligi, dori vositalarini qo'llash soni kamaytirilishi, davolash xarajatlarini qisqartirilishi.

**Tadqiqot natijasi:** Dori va yordamchi moddalar teshigini diametri 150 mkm li elak orqali o'tkazilib, yaxshilab aralashtiriladi va tozalangan suv bilan mo'tadil nam massa hosil qilinadi. Massani mo'tadilligi quyidagicha tekshiriladi: Massani ikki barmoq orasiga olib siqqanda bir butun bo'lakcha hosil bo'ladi, uni 10-15 sm balandlikdan tashlab yuborilganda uvalanib ketmasligi kerak, agar uvalanib ketsa yana bog'lovchi modda qo'shish kerak bo'ladi. Agar massa barmoqlarga yopishsa, demak bog'lovchi modda me'yoridan ko'p qo'shilgan bo'ladi. So'ngra tayor massani patnuslarga 2-3 mm qalinlikda yoyib, 50-60<sup>o</sup>S haroratda mo'tadil qoldiq namlik qolguncha quritiladi. So'ngra teshigining diametri 3000-2000-1000 mkm li elak orqali o'tkaziladi. Tayyor massani mayda fraksiyadan tozalash uchun diametri 200 mkm li elak orqali elanadi. Tayyor granula tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan idishlarga 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100 gr qadoqlab og'zi zich berkiladi va tegishli etiketka yopishtiriladi. Tayyor mahsulot analitik laboratoriyaga analiz uchun topshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bolallar amaliyotida ishlatiladigan dorilar mutlaqo mikroorganizmlar saqlamasligi va sterill bo'lishi kerak.

**Xulosa.** Tajriba qismini o'tkazish maqsadida dorivor dalachoy, dorivor moychechak, tirnoqgul, shalfey o'simliklari olindi. Dorivor dalachoy, dorivor moychechak, tirnoqgul, shalfey asosida olingan granula tarkibidagi oshlovchi va fenol birikmalarning miqdori sifat va miqdoriy tahlillar asosida aniqlandi. Taxlil natijasida granula tarkibida tanin moddasi miqdori va rutin, kversetin, sinarozid moddalari aniqlandi. Demak olingan granula tarkibida yallig'lanishga qarshi moddalar mavjud.